



## O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'GZAKI NUTQINI O'STIRISH

**Suyunova Marjona Akbar qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda o'qish darslarida bolalarning tanlab qayta hikoya qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darsida keng qo'llaniladigan metodik usullar haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ertagi, og'zaki nutq, sintez, analiz, taqqoslash, muhokama, mukammal rivojlantirish.*

### **Kirish.**

Nutq va uning turlar. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, karakteri xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti harakterlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltiriliishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishda faqat analizdan faktlarni o'zaro bog'laydi.(sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Bolaning jismoniy, aqliy va intellektual tarbiyasi erta bolalikdan boshlanadi. Barcha ko'nikmalar, jumladan, to'g'ri gapirish qobiliyati oilada o'zlashtiriladi. Bolaning nutqi qarindoshlari, yaqin odamlari misolida shakllanadi. Bola nutqining tovush chiqaruvchi tomoni kattalarning alohida ta'siri va yordamisiz mustaqil ravishda rivojlanadi, degan chuqur noto'g'ri fikr. Aslida, bolalar nutqini shakllantirish jarayoniga aralashmaslik deyarli har doim rivojlanishning kechikishini anglatadi. Bolaning omma orasida to'g'ri va ravon gapirishi uchun faqatgina maktanda emas, balki uyda ham shug'ullanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bunday imkoniyatlarni ota va ona yaratib bera oladi. Dars davomida birgina ona tili fani emas, o'qish savodxonligi fani ham juda katta ahamiyatga ega, ona tili yozma savodni o'rgatsa, o'qish og'zaki savodni o'rgatadi. Shunday ekan, o'qish darsiga ham ko'proq o'tilishi kerak. O'qish faniga qiziqitirish darsni samarali darajada qilib o'tqazish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Bolalar tanlab hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darsida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi:

1. Hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;
  2. Hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;
  3. Tanlab qayta hikoyalashni savollarga javob berish;
- Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagicha uyushtiriladi:



1. O'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'yilgan birinchi qismini o'qiydi.
2. O'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi.

O'qish darslarida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Xat savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni arashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalariга jalb qilish, yozuvlarni to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim. Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqini muvaffaqiyatli o'stirish materialini tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiriladigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qish o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tkazish jarayonida o'quvchilarga o'qish va qiroatxonlik saboqlarini berish, kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobning muqaddas ekanligini his etish, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ularning ibratli ishlariga ergashish, salbiylardan nafratlanish, o'z taassurotlarini tasvirli so'zlab berish kabi mahoratlarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy – tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'qish darslaridan asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan xulosa chiqara olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning nutqini ravon bo'lishiga, fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga, ongining takomilashishi, dunyoqarashining kengayishiga, ijodkorligining oshishiga va albatta nutq madaniyatining shakllanishiga va o'z do'stlariga bema'lol o'z fikrini bildira olish imkoniyatiga ega bo'ladi va xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh., 2017-yil 6 aprel 187-son.
2. G.Xolboyeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent 2022-y. 304-b.

